

“Inson qadri uchun”: “O’zkiyosanoat” AJ Yozyovonda kambag’allikni qisqartirishga hissa qo’shmoqda

// 26.09.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/inson-qadri-uchun-o-zkiyosanoat-aj-yozyovonda-kambag-allikn>



Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Kambag’allikdan farovonlik sari” dasturi va uni amalga oshirish bo’yicha PQ-330-sonli qaror aholi turmush farovonligini oshirish, eng muhimi, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotga tatbiq etishda muhim qadam bo’ldi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida “O’zkiyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga Farg’ona viloyatining Yozyovon tumanidagi “Ishtirxon”, “Yangiobod” va “Suvliariq” mahallalari birlashtirildi. Jamiyatning ishchi guruhi mazkur hududlarda aholining bandligini ta’minlash, yangi ish o’rinlari yaratish va infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan qator amaliy ishlar olib bordi.



Xususan, jamiyat homiyligida og'ir toifadagi mahallalardan ijtimoiy himoya reyestrda ro'yxatda turgan 24 nafar ehtiyojmand oilaga 5,0 kVtli quyosh panellari o'rnatib berildi. Bu nafaqat ekologik toza energiya manbasidan foydalanish imkonini berdi, balki oilalarning oylik xarajatlarini ham kamaytirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, 33 ta elektropech, 12 ta kompressor qurilmasi, 15 ta o't o'radigan uskuna, hamda 15 ta kichik dori sepadigan apparatlar ehtiyojmand fuqarolarga taqdim etildi. Natijada, ishsiz aholi vakillari uchun daromad manbai yaratildi, ularning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi.



Ta'kidlash joiz, bu xayrli ishlar bir martalik aksiya emas, balki keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning bir qismidir. Jamiyat kelgusida ham mahallalardagi infratuzilmani yaxshilash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga ko'maklashish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda ham ishlarni davom ettiradi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati